

STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Shtablar boshliqlari birlashgan qo‘mitasi raisi, general Sahir Shamshod Mirzo boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning salomi va eng egzu tilaklarini yetkazdi.

Pokiston Bosh vazirining joriy yil fevral oyidagi O‘zbekistonga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan O‘zbekiston — Pokiston ko‘p qirrali hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalarda o‘zaro muloqot va almashinuvlar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 23 foizga, yuk tashish 50 foizga oshdi. Karachi va Lahor shaharlarida savdo uylari ochildi. To‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar ko‘paydi.

Harbiy va harbiy-texnik sohalarda, xavfsizlikka zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashish borasidagi amaliy hamkorlik masalalari ko‘rib chiqildi.

Transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha imzolangan uch tomonlama bitimni tez fursatda amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

OLIMPIYA SHAHARCHASI



YURTIMIZ SPORTINI DUNYONING ENG YUKSAK CHO‘QQISIGA OLIB CHIQUVCHI PILLAPOYADIR

Mustaqilligimizning 34 yilligi tobora yaqinlashayotgan ushbu kunlarda Toshkent shahrida qurib bitkazilgan Olimpiya shaharchasi bayramga munosib tuhfa bo‘ldi.

Uning qurilishiga 2022-yil 9-noyabrda tamal toshi qo‘yilgan edi. Qisqa muddatda 100 gektardan ziyod maydonda qad rostlagan ushbu majmua xalqimizning bunyodkorlik salohiyati, kelajak avlodlarga

g‘amxo‘rligining yorqin namunasi, yangi O‘zbekiston sporti yuksalishi uchun mustahkam asosdir.

▶ Davomi 2-betda

ISTIQLOLNING BUYUK QUDRATI

O‘ZBEKISTONNING MILLIY SAYLOV TIZIMIDAGI BEQIYOS O‘ZGARISHLARDA YORQIN NAMOYON BO‘LMOQDA

Shu kunlarda yurtimizda istiqlol bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan barcha tadbirlar mazmun-mohiyatida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan egzu g‘oya o‘zining yorqin ifodasini topayotganida erishilayotgan ulkan muvaffaqiyatlardan shukronalik mujassam.

Xalqimiz o‘z kuchi va salohiyati bilan barpo etgan mustaqil davlat, erkin va ozod jamiyatni yanada kuchli, yanada go‘zal va obod etish davlatimiz rahbari tomonidan bosh vazifa sifatida belgilangani izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarda muhim omil bo‘lmoqda. Buni mamlakatimiz milliy saylov tizimidagi beqiyos o‘zgarishlar misolida ham ko‘rish mumkin.

Taraqqiyotimizning o‘tgan davri mobaynida demokratik saylov tizimi va milliy saylov qonunchiligi bosqichma-bosqich shakllantirilib, konstitutsiyaviy prinsip va umume‘tirof etilgan xalqaro saylov standartlariga moslashtirildi.

Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar

samarasida partiyalarning siyosiy maydondagi roli kuchaydi, saylovchilarning faolligi oshdi, saylov jarayonida ishtirok etayotgan fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, mahalliy va xalqaro kuzatuvchilarning jamoat nazorati va monitoringini olib borish vakolatlari kengaydi.

Albatta, bularning barchasi davlatimiz rahbari tashabbusi bilan milliy saylov tizimini tubdan isloh qilish, yanada demokratlashtirish, fuqarolarga qulaylik va erkinlik yaratish bo‘yicha sobitqadamlik bilan olib borilayotgan izchil siyosatning yuksak samaralaridir.

▶ Davomi 3-betda

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI IQTISODIY VOQEELIGI: INSON UCHUN BARPO ETILGAN TIZIM



Agar vaqt chizig‘ini sakkiz yilga ortga sursak, 2016-yildagi O‘zbekiston manzarasi ko‘z oldimizda paydo bo‘ladi: valyuta siyosatidagi qattiq nazorat, tashqi iqtisodiy faoliyatdagi chekllovlar, eksportdagi monopoliya va investitsiya muhitidagi turli byurokratik to‘siqlar tufayli iqtisodiyot muayyan to‘siqlar ichida qolgan edi. Hozirgi manzara esa butunlay boshqacha. Raqamlar va hayotdagi o‘zgarishlar mamlakat taraqqiyotidagi keskin burilishni yaqqol namoyon etmoqda.

2016-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi jihatidan dunyodagi 195 davlat orasida 71-o‘rinni egallagan. Bu raqam, albatta, muayyan barqarorlikni ko‘rsatsa-da, jahon bozoriga integratsiya va raqobatbardoshlik nuqtayi nazaridan unchalik katta ko‘rsatkich emasdi. Ekstensiv o‘shish, ya‘ni ichki xazinalar hisobiga o‘shish asosiy drayver bo‘lib kelgan. 2024-yil yakunlari esa mutlaqo boshqacha so‘zlaydi. YIM qiymati 114,97 milliard dollarga yetdi va O‘zbekiston global ro‘yxatda 62-o‘rinni egalladi. Bu bor-yo‘g‘i sakkiz yilda iqtisodiyot hajmi 71 foizga o‘shdi, degani. Bu o‘shish shunchaki nominal ko‘rsatkichlar ortidagi harakat emas, balki iqtisodiyotning ichki tuzilishidagi tub o‘zgarishlar bilan bog‘liq jarayondir. 2016-yilda iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiya hajmi 16,6 milliard dollarni tashkil etgan. O‘sha yili 164 ta yirik loyiha amalga oshirilgan. Mana shuning o‘ziyoq mamlakatda investorlar uchun



imkoniyat cheklangani va resurslar yetarli darajada safarbar etilmaganini ko‘rsatadi. 2025-yilga kelib esa vaziyat mutlaq o‘zgardi. Faqatgina 2024-yilning o‘zida 36 milliard dollar investitsiya jalb qilindi. Bu 2016-yilga nisbatan 2,2 barobar ko‘p. Bu mablag‘ hisobidan 70 trillion so‘mlik qiymat yaratadigan 560 ta yirik va o‘rta loyiha ishga tushirildi. Investitsiyalar geografiyasi ham kengaydi. 2017-2024-yillarda jalb qilingan 188 milliard dollarlik investitsiyaning 87 milliard dollari to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el manbalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyotiga xalqaro ishonch darajasi izchil o‘sganini ko‘rsatadi. 2016-yilda 11,1 milliard dollarlik mahsulot eksport qilingan. Shu yili 877 ta korxona eksport faoliyatiga yangidan jalb etilgan. Bu raqamlar mamlakatimizning o‘sha vaqtda ham eksportni kengaytirishga uringani, biroq eksport salohiyati nisbatan cheklanganini ko‘rsatadi. 2024-yilga kelib, eksportda katta siljish

kuzatildi. Korxonalar soni, mahsulot turlari va geografiyasi sezilarli kengaydi. “Made in Uzbekistan” brendi qator xalqaro yarmarka va ko‘rgazmalarda o‘z o‘rnini topdi. Tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yili 65,9 milliard dollarni tashkil qildi. Bu o‘zgarishlar mamlakatning ichki ishlab chiqarish salohiyati va tashqi bozordagi raqobatbardoshligi oshganidan dalolat beradi. Solishtirma tahlillarga ko‘ra, 2016-2025-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti tubdan o‘zgardi. Faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi, davlat va biznes o‘rtasidagi munosabat, investitsiya siyosati, tashqi savdo va ichki ishlab chiqarish tizimlari isloh qilindi. Mamlakatimiz 2017-yildan keyin markazlashgan nazoratdan bozorga asoslangan boshqaruvga, inson qadriga tayanadigan iqtisodiyotga o‘ta boshladi. Bunday o‘zgarishlarni raqam va faktlar orqali baholash mumkin. Lekin yanada muhimrog‘i, bu o‘zgarishlar yurtdoshlarimiz hayotida qanday aks etayotganidir. Xalqning davlatga ishonchi, iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, tadbirkorlik faolligi, ko‘p tarmoqli iqtisodiyot sari yo‘nalish — bularning barchasi keyingi bosqichdagi sifat o‘shishining poydevoridir. Raqamlar O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini topganidan guvohlik bermqda. Izchil islohotlar, inson qadri, ochiqchilik va iqtisodiy barqarorlik yo‘lidan endi ortga qaytmaydi.

▶ Davomi 4-5-betlarda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



QALBIM QO‘RI, IJODIM VA YUTUQLARIM SHU ELIMNIKI

Davlatimiz rahbari tomonidan milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, rivojlantirishga qo‘shgan kamtarona mehnatim yuksak e‘tirof etilganidan, 20-avgust — Tadbirkorlar kuni arafasida “Do‘stlik” ordeniga sazovor bo‘lganimdan benihoya minnatdorman. Zero, bu mamlakatimizda amaliy san‘atning noyob turlariga, so‘znanadek betakror san‘at turiga bo‘lgan alohida e‘tiborning amaldagi ko‘rinishi bo‘ldi.



Madina KASIMBAYEVA,
kashtachilik-so‘zana ustasi,
“Do‘stlik” ordeni sohibi

Ha, yurtimizda an‘analar, qadriyatlar, milliylik o‘zgacha qadrlanadi. Ayniqsa, keyingi yillarda nomoddiy madaniy merosni asrashga jiddiy e‘tibor qaratilgan. Milliyligimizni ulug‘lovchi qo‘l mehnati mahsulotlari yuqori baholanyapti. Ijodiy faoliyatim davomida choponlar kolleksiyalarini, aksessuarlar, interyer buyumlarini yaratganim zahirida ham milliylikka mehr-muhabbat yotadi. Shogirdlarim bilan birgalikda Toshkent kashtachilik maktabining barcha kashta turlarini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldik. Qo‘l ishlarimiz mamlakatimizdan tashqari Avstraliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, AQSH, Turkiya, Fransiya, MDH mamlakatlari va boshqa davlatlardagi shaxsiy kolleksiyalarda saqlanyapti. Kashtachilik buyumlarimiz mahalliy va chet ellik san‘at ixlosmandlarida katta qiziqish uyg‘otib, ekspertlar, san‘atshunoslar, kolleksionerlar tomonidan milliy san‘at namunasini sifatida yuqori baholanayotgani bizga g‘oyibona kuch beradi. 2023-yil Britaniya muzeyi tomonidan doimiy ekspozitsiya uchun 2 ta ijodiy ishim sotib olindi.

Albatta, bular o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Iste‘dodni yuzaga chiqarish uchun faqat mehnat talab qilinadi.

2000-yildan boshlangan ijodiy faoliyatim davomida bir qator milliy va xalqaro tadbirlarda, ko‘rik-tanlovlarda, ko‘rgazmalarda ishtirok etib, g‘oliblikka erishdim. 2015-2018-yillarda Marg‘ilon shahrida o‘tkazilgan “Atlas bayrami” Xalqaro an‘anaviy to‘qimachilik festivalida



Qobil TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining Budjet va
iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi
o‘rinbosari

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayni yo‘nalishda sog‘lom raqobat muhitini yaratish borasida olib borilgan tizimli islohotlar natijasida tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotimizning yetakchi kuchiga aylanib ulgurdi.

Keyingi besh yilda bu soha ish o‘mi, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo‘shilgan qiymat va eksportni ko‘paytirishga eng katta turtki berayotgan yo‘nalishga aylanadi. Kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 karta ko‘paygan. Band aholining qariyb 11 millioni, ya‘ni 74 foizi aynan shu sohada daromad topmoqda. Yalpi ichki mahsulot hajmining yarmidan ko‘pi, sanoat va eksportning uchdan bir qismi shu soha vakillari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu raqamlar kundan kun o‘sim, mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligi uchun kichik va o‘rta biznesning qanchalik muhimligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Sohani zamon talablariga mos rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor

UNESCOning “Sifat belgisi” sertifikatini bilan taqdirlandim. 2016-2019-yillarda Hindistondagi xalqaro festivalda, AQSHda muntazam o‘tkazilgan xalqaro yarmarkalarda ham qatnashdim.

O‘zimni nafaqat an‘anaviy hunarmand, balki, an‘analarni innovatsion qo‘llay oladigan dizayner sifatida namoyon etishga bel bog‘ladim. Mehnatlarim, tinimsiz izlanishlarim samara berdi. 2023-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus rezolyutsiyada barqaror rivojlanish maqsadini aks ettirgan “Matonatning 17 qiyofasi” nomli fotoko‘rgazmada turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan o‘zbekistonlik ayollardan biri sifatida qatnashdim.

Jenevadagi Millatlar saroyida bo‘lib o‘tgan tadbirga ma‘ruzachi sifatida taklif etilganim jonajon Vatanimga bo‘lgan muhabbatimni yanada ziyoda qildi. Riga shahrida O‘zbekistonning Latviyadagi elchixonasi tomonidan o‘zbek amaliy san‘atiga, jumladan, kashtachilikka bag‘ishlangan “Firdavsmonand bog‘lar” nomli tadbirda, Parijdagi Arab dunyosi institutida mahorat darslari o‘tdim. “Assouline Publishing” nashriyotida chop etilgan O‘zbekiston amaliy bezak san‘ati va zamonaviy hunarmandlariga bag‘ishlangan “O‘zbekistonning jonli xazinalari: hunarmandlik tantanasi” kitobining nodir muqovasini yaratish baxtiga musharraf bo‘lganim esa dizaynerlik faoliyatimdan bir lavha.

O‘tgan yilning 5-9-mart kunlari Latviya Respublikasi Riga shahrining “Birja” muzeyida shaxsiy ko‘rgazmam bo‘lib o‘tdi. Bunday imkoniyatga yetishganim uchun juda ko‘plab hamkasblarim, vatandoshlar qizg‘in tabrikiladi. Bu bilan faqat o‘zimni emas, shogirdlarimni ham dunyo miqyosida tanitish niyatimga erishdim. Chunonchi, yosh avlodga kashtado‘zlik sirlarini o‘rgatish, betakror kashtachilik maktabini yaratish menga har kuni yangi kuch, yangi g‘ayrat beradi. Bugun mingdan ziyod shogirdlarim kashtado‘z hunarmandga aylandi. Aksariyati ko‘rik-tanlovlar g‘oliblari, poxtaxida va respublikamizning barcha viloyatlarida ijodiy faoliyat yuritib kelmogda. O‘ylaymanki, ularning qadami yetgan joylarda ham o‘zbek kashtachiligining, serjilo so‘zanining umri boqib bo‘ladi.



OLIMPIYA SHAHARCHASI

YURTIMIZ SPORTINI DUNYONING ENG YUKSAK CHO‘QQISIGA OLIB CHIQUVCHI PILLAPOYADIR



Oybek QOSIMOV,
Milliy Olimpiya qo‘mitasi
bosh kotibi

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari shaharchaga tashrif buyurib, hududdagi yangi inshootlar bilan tanishish asnosida yurtimizda sportni yanada rivojlantirish, iqtidorli sportchi yoshlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, xalqimizni ommaviy sportga keng jalb etish borasida tavsiyalar berdi.

Yangi, muhtasham sport shaharchasining qurib bitkazilishi nafaqat xalqimizning, balki jahon sport hamjamiyatining ham

olamshumul yutug‘i bo‘ldi. Zero, sport dunyoda do‘stlik, o‘zaro teng manfaatlilik hamkorlik, tinchlik va rivojlanishni targ‘ib etishda muhim vositadir.

Bugun dunyodagi global o‘zgarishlar tufayli turli mintaqalarda ro‘y berayotgan notinchlik, o‘zaro nizo va kelishmovchiliklar kuchaygan bir pallada bunday katta tashabbusni ro‘yobga chiqarish oson ish emas. Bu — xalqimizning qon-qoniga singib ketgan yaratuvcchanlik, bunyodkorlik ruhining yorqin ifodasi. Ushbu muhtasham majmua yangi O‘zbekiston qanday salohiyatga ega ekani, bu zaminda tinchlik, farovonlik, yaratuvcchanlik qanchalik qadrlanishi, qolaversa, davlatimizning o‘ziga xos kuch-qudratini namoyon etadi.

Biz, sportchilar katta musobaqalarda ishtirok etish uchun rivojlangan davlatlarga tez-tez borib turamiz. Oxirgi yillarda Parij, Rio-de-Janeyro, Tokio kabi yirik shaharlarda bo‘ldik. Ularning har birida katta-katta sport inshootlari mavjud. Ammo mamlakatimizda qad rostlagan Olimpiya shaharchasining ulardan ajralib turadigan jihati ko‘p.

Xususan, bu yerda 100 gektardan ko‘proq hududda juda ulkan infratuzilma yaratilgan. Uning 8 gektardan ziyod maydonida bino-inshootlar joylashgan. Barcha sport inshooti bir-biriga yaqin joylashgani sport tadbirlarini

o‘tkazishda katta qulaylik yaratadi. Chunki ko‘pincha olimpiya o‘yinlarida bir musobaqadan ikkinchisiga borishda yo‘lga soatlab vaqt ketadigan holatlar bo‘ladi. Bu yerda shu jihatlar e‘tiborga olingani ayni muddao.

Prezidentimiz ushbu loyihani yaratish g‘oyasi paydo bo‘lgan ilk kunlardayoq yana bir masalaga e‘tibor qaratdi. Bunday ulkan inshootlar faqat sport musobaqalari o‘tadigan joy bo‘libgina qolmasligi, mamlakatning sport salohiyatini yuksaltirish, yoshlar, sportchilar, jumladan, xalqimiz sport bilan shug‘ullanishida uning bazasidan oqilona foydalanish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Ushbu majmuani loyihalashtirish bosqichidan toki qurilishigacha ana shu masalalar e‘tiborda bo‘ldi.

Buihatlargaalohida e‘tibor qaratilishi bejiz emas. Chunki katta sport tadbirlari o‘tadigan dunyoning ko‘plab Olimpiya shaharchalari tadbir o‘tganidan keyin konservatsiya qilinishini ko‘p bor kuzatganmiz. Prezidentimiz bu bizning maqsadimizga muvofiq kelmasligini ta‘kidlab, yangi majmuadan sportni rivojlantirish yo‘lida keng foydalanish vazifasini oldimizga qo‘ydi. Shu bois, malakali mutaxassislar va xalqaro ekspertlar keng jalb etilib, inshootlarni loyihalashtirishdan boshlab, qurilishi yakunlanganigacha bo‘lgan bosqichda majmuadan kelajakda samarali foydalanish e‘tiborimiz markazida bo‘ldi.

Qolaversa, bino-inshootlarning xalqaro standartlarga mosligi ham alohida mezon etib belgilandi. Bunyodkorlik ishlari shu jihatlarini e‘tiborga olgan holda bajarildi. Natijada yangi majmuada barcha jihat, xususan, energiyani tejash ham ko‘zda tutildi. Shuningdek, katta sport musobaqalarini o‘tkazishda har bir jihat e‘tiborga olindi. Masalan, yopiq inshootlarning yonida zaxira stadionlar ham qurildi. Bu xalqaro musobaqalarni yuqori saviyada o‘tkazishda ko‘l keladi.

Shu bilan birga, jamoaviy sport turlari bo‘yicha ham alohida inshoot bor. Bu bir

vaqtda ham musobaqalarni o‘tkazish, ham zaxira maydonda tayyorgarlik ko‘rish uchun qulaylik yaratadi.

Professional sportda xalqaro sertifikatlardan o‘tkazilgan sifatli sport anjomlarining o‘rni katta. Bunday vositalar esa ancha qimmat. Shunga qaramay, davlatimiz rahbari inshootlarning barchasi yuqori sifatli sport anjomlari bilan ta‘minlanishi kerak degan vazifani qo‘ygani bois, majmua to‘liq oxirgi rusumdagi sport jihozlari bilan ta‘minlandi. Bunday qulaylik ham hamma joyda bor deb bo‘lmaydi.

Shu jihatdan olganda, Olimpiya shaharchasi mamlakatimiz sportining ilmiy, amaliy, o‘quv-mashg‘ulot markazi, o‘zbek sportining olamshumul yutuqlari ramziga aylanuvchi muhtasham majmua bo‘ldi, desak aslo muholag‘a emas.

Albatta, yurtimizda shunday zamonaviy sharoit yaratilishi butun xalqimiz qatorida biz, sportchilarga ham ulkan faxr-iftixor baxsh etadi. Shu bilan birga, endi bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, sportdagi yutuqlarni yanada ko‘paytirish zimmamizga katta mas‘uliyat yuklaydi. Xususan, endi olimpiya harakatini yanada rivojlantirish, kelgusidagi musobaqalarda natijalarni ko‘paytirish maqsad qilinagan.

Prezidentimizning shu yil 8-iyuldagi qarori bilan O‘zbekiston sportchilarini 2028-yilgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash dasturi qabul qilindi. Bu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli bajarish maqsadida Milliy olimpiya qo‘mitasining 14 ta hududiy bo‘limi tashkil etildi.

Iqtidorli sportchilarni eng quyi bo‘g‘indan boshlab saralash va professional etib tayyorlash uchun uch bosqichli “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” musobaqasi yo‘lga qo‘yildi. Uning final bosqichi har yili Olimpiya shaharchasida “Prezident olimpiadasi” sifatida o‘tkaziladi. G‘olib va sovrindor sportchilar Olimpiya markazlariga jalb etilib, professional tayyorlanadi.

TADBIRKORLIK RIVOJI YO‘LIDAGI UCH MUHIM VOQELIK

20-avgust — Tadbirkorlar kuni



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

ishchilari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga tushiriladi.

Ikkinchi muhim yangilik, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida 11-avgust kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilab berilgan vazifalar yuzasidan qaror qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun 2030-yil 31-dekabr qadar maxsus huquqiy rejim joriy etiladi. Barcha asosiy xizmatlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalar yaratiladi. Faoliyatni rasmiylashtirish, bank hisobvaraqlari ochish va boshqarish,

soliqlarni hisoblash va to‘lash, hisob-kitoblar qilish va fiskal cheklarni shakllantirish shular jumlasidan.

Ushbu tizimda elektron hamyon ochilishi tadbirkorlarga daromadlarni qabul qilish, xodimlar, kontragentlar va tashkilotlar bilan hisob-kitobni amalga oshirish, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash imkoniyatini beradi. Shuningdek, elektron hamyonga ega bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun bank hisobvaraqlarini ochish ixtiyoriy bo‘ladi.

2025-yil 1-noyabr boshlab esa bu jarayonlarda QR-kod va “tap to pay” texnologiyasidan foydalaniladi. Hujjatlarni masofaviy biometriya va “SMS xabarnoma”

orqali elektron kalitsiz imzolash mumkin bo‘ladi. Bu ma‘lumotlar qog‘oz nusxadagi hujjatlar bilan tenglashtiriladi. “Kunlik to‘lov” tartibi tajriba tariqasida joriy etilib, xodimlarga to‘lovlarni elektron hamyon orqali to‘lash imkoniyati yaratiladi. Elektron to‘lovlarni qabul qiluvchi maxsus QR-kod mavjud bo‘lishi chakana savdo qoidalarning majburiy talabi etib belgilandi. Raqamli platformadagi pul aylanmalari to‘g‘risidagi ma‘lumot kredit ajratishda inobatga olinadi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab yillik aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun aylanmasidan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilandi.

Uchinchi yangilik, to‘qimachilik sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratildi. Xususan, 2022-2023-yillar hosili uchun kreditdan qarzdorligi garov qo‘yish sharti bilan besh yilgacha uzaytirilgan klasterlar joriy yil 1-avgustdan garovi tayin bo‘lsa, faqat asosiy qarzni to‘lashi, qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi va banklarga hisoblanadigan foizlar esa asosiy qarz to‘liq qoplanganidan keyin undirilishi belgilandi. Klasterlarning bank oldidagi majburiyatlari o‘z vaqtida to‘langan holda, foizning jamg‘armaga tegishli qismining yarmi tadbirkor ixtiyoriga qaytarilishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Klaster korxonalariga 2022-2023-yillar hosili uchun berilgan kredit bo‘yicha 1-avgust holatiga yuzaga kelgan 377 milliard so‘mlik penyadan voz kechiladi.

Tijorat kreditidan majburiyati bo‘lgan 144 ta korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

2025-yilgi paxta hosilini o‘z vaqtida terib olish uchun fermerlarga tonnasiga 1 million so‘mdan subsidiya ajratilishi, agarda korxonalar o‘z mablag‘i hisobidan paxta yetishtirsa yoki xarid qilsa, xomashyo qiymatining 10 foizi qoplab berilishi qayd etildi. To‘qimachilik zanjiridagi barcha korxonalarga ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanishi, ijtimoiy reyestr bo‘yicha talab bekori qilinishi, umumiy faoliyatda to‘qimachilik ulushiga talab esa 90 foizdan 70 foizga tushirilishi ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘z xodimlari farzandlari uchun bog‘cha tashkil qilgan korxonalar xuddi xususiyatlardagi kabi har bir tabiiyalanuvchi bo‘yicha subsidiya ajratilishining joriy etilishi yuzasidan mutasaddilarga ko‘rsatma berildi. Ip-kalava tannaxriga elektr energiyasi qiymati ham ta‘sir qilishi inobatga olinib, korxonalarga o‘z ehtiyoji uchun o‘rnatilgan quyosh panellarini tarmoqqa ulashga ruxsat berildi. Mahsulot tarkibining 90 foizi paxtaligi bois, tayyorlanayotgan ip-kalava va matoning narxi raqobatchilarga nisbatan o‘rtacha 10-15 foiz yuqori. Shu bois, ishlab chiqaruvchilar sun‘iy tola va aralash mato olib kirishda 2022-yil 1-yanvargacha bojxona bojidand ozod etilishi aytiladi. Bir nechta bo‘yoq korxonalari birlashib quradigan suv tozalash inshooti xarajatining bir qismi Savdoni rivojlantirish kompaniyasi tomonidan qoplab berilishi qayd etildi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularga keng va qulay imkoniyatlar yaratish, birinchi navbatda, aholi moddiy talabini qondirish, bandligini ta‘minlash orqali farovonligini yuksaltirish, qolaversa, jahon bozorida O‘zbekiston brendini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Fuqarolarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar saylovlari jarayoniga qiziqishining sezilarli darajada oshgani barcha bosqichlari ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik asosida o‘tkazilgan saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishning natijalarida yaqqol ko‘rindi: saylovda jami 15 million 27 ming 529 nafar saylovchi ovoz berdi. Bu saylovchilar umumiy sonining 74,72 foizi demakdir.



Zayniddin NIZOMXO‘JAYEV, Markaziy saylov komissiyasi raisi, O‘zbekiston Qahramoni

Boshlanishi 1-betda

Dunyo tarixiga nazar tashlansa, fuqarolarning saylov huquqini ta‘minlash, milliy saylov tizimini shakllantirish, binobarin, demokratiya sari dastlabki qadamlarni qo‘yish jarayoni hech bir mamlakatda oson kechmagan ayon bo‘ladi. Bunday sharaflari yo‘lni mamlakatdagi tinchlik, totuvlik va siyosiy barqarorlikda bosib o‘tish kamdan-kam davlatga nasib etgan.

Milliy davlatchilik tarixi necha ming yillarga borib taqaluvchi O‘zbekiston — ana shunday kam sonli mamlakatlardan biri. Mustaqillik yillarida yurtimiz milliy saylov tizimi ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi va davlat hokimiyatining muhim institutlarini shakllantirishga salmoqli hissa qo‘shdi.

O‘zbekistonning erkin va raqobatli saylovlari o‘tkazish bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan barcha xalqaro majburiyatlarga qat’iy amal qilib kelayotgani mamlakatimizda saylov kompaniyalari milliy qonunchilik va demokratik saylovlarning umume’tirof etilgan tamoyillariga muvofiq o‘tkazilganida o‘z in’ikosini topmoqda.

Bunda, eng avvalo, davlatimiz rahbarining xalq mehriini qozongan qat’iy siyosiy irodasi, yurtimizdagi siyosiy tizimning yetukligi, demokratiya, madaniyat va inson huquqlarining yuksak mezonlari muhim omil bo‘layotir.

Muvaffaqiyatli o‘tkazilgan har bir saylov va referendum, shubhasiz, umummilliy g‘alaba, nafaqat Vatanimizda, balki Markaziy Osiyo mintaqasi va jahonda xavfsizlik, barqarorlik va tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlashga qo‘shilgan munosib hissadir.

Inson huquqlari, jumladan, fuqarolarning saylov huquqini keng ta‘minlash borasidagi milliy yuksalish zamirida yangi O‘zbekistonda umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi, yashirin ovoz berish tamoyillariga qat’iy amal qilinib, umume’tirof etilgan xalqaro saylov standartlarining milliy qonunchiligiga izchil singdirilishi bilan bog‘liq ko‘lamli islohotlar va sharaflari mehnat mujassam. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va milliy qonunchiligimizda saylov organlarini shakllantirishga oid qoidalarining mustahkamlab qo‘yilgani bu jarayonda ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Samaralari yuksak davr

Ta’kidlash joizki, xalqimiz davlat mustaqilligiga erishguncha O‘zbekistonda doimiy faoliyat yurituvchi mustaqil saylov organi bo‘lmagan. Muayyan saylov kampaniyasi sifatida milliy parlament huzurida muvaqqat ish olib boruvchi saylov qo‘mitasi yoki saylov komissiyasi tuzilgan va saylov yakunlanishi bilan o‘z faoliyatini to‘xtatgan.

1998-yil 30-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi milliy saylov tizimining mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshirishi yo‘lga qo‘yildi.

2014-yildan Konstitutsiyaviy organ maqomi berilgan va faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik,



ISTIQLOLNING BUYUK QUDRATI

O‘ZBEKISTONNING MILLIY SAYLOV TIZIMIDAGI BEQIYOS O‘ZGARISHLARDA YORQIN NAMOYON BO‘LMOQDA

mustaqillik, adolatlikdan iborat Markaziy saylov komissiyasi mamlakatimizda Prezident saylovi, parlament va mahalliy kengashlar saylovi hamda referendumlarni o‘tkazuvchi barcha saylov komissiyalari tizimiga boshchilik qilib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasining butun hududida Saylov kodeksining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, uning bir xil tarzda qo‘llanilishini ta‘minlaydi.

2019-yili Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqaro norma va standartlarga javob beradigan Saylov kodeksi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Vatanimizda saylovlar sohasidagi islohotlarning yangi va yanada yuksak samarali davrini boshlab bergan ushbu Kodeksda saylov qonunchiligiga oid hujjatlar kodifikatsiya qilinib, xalqaro tajriba va amaliyot afzalliklari chuqur talhi etilgan holda, bir-birini takrorlovchi qonun normalariga barham berildi.

Mazkur Kodeks yaratilishidan asosiy maqsad fuqarolarning saylov qonunchiligiga doir konstitutsiyaviy huquqlaridan samarali foydalanish, o‘tkaziladigan saylov jarayonlarining xalqaro saylov standartlari qoidalariga muvofiqligini ta‘minlash, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi bevosita ishtirok etish huquqlarini yanada mustahkamlash, siyosiy partiyalarning mamlakat siyosiy sahnasidagi sog‘lom raqobatini ta‘minlashdan iborat.

Saylovchilar va saylanuvchilar uchun keng imkoniyat va qulayliklar yaratgan ushbu Kodeks yurtimizda saylovlarning oshkoralik, shaffoflik, haqqoniylik, xolislik kabi demokratik tartib-tamoyillar asosida o‘tishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu, ayniqsa, yangi O‘zbekistonda ulkan muvaffaqiyat bilan o‘tkazilgan milliy parlament va mahalliy kengashlarga (2019 va 2024-yillar) va Prezident (2021-yil) saylovlari, O‘zbekiston Respublikasi referendumlari hamda muddatidan ilgari Prezident sayloviga (2023-yil) tayyorgarlik ko‘rish va



ishdek tuyuladi. Lekin necha o‘n yillardan buyon amal qilib kelayotgan bu muddatni o‘zgartirishdek xayrli ish yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilganida buyuk bir hikmat — xalq fikri va inson qadriga yuksak hurmat-ehtirom mujassam.

2023-yilda mamlakatimiz tarixida ilk bor umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi esa yangi O‘zbekiston hayoti barcha sohalarining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yangilangan Konstitutsiyamizda demokratik saylov tamoyili qat’iy mustahkamlandi, fuqarolarning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqi kafolatlandi. Bosh qonunimizning ko‘plab boshqa mamlakatlar konstitutsiyalaridan farqli asosiy jihatlaridan biri — uning alohida XXII bobi aynan saylov tizimi, fuqarolarning saylovga oid asosiy huquqlari kafolatiga bag‘ishlanganida.

Xususan, 128-moddada har bir saylovchi bir ovozga egaligi, ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanishi, o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqaro saylash huquqiga egaligi, saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilishi belgilandi. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun sud hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sud qarori asosida mahrum etilishi munosiblik ko‘rsatildi.

Zamonaviy konstitutsiyaviy normalar va umume’tirof etilgan xalqaro saylov standartlari asosida milliy saylov qonunchiligi tubdan takomillashtirildi. Yangi O‘zbekistonning milliy saylov tizimida amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlar 2024-yil 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonida o‘zining yorqin ifodasini topdi.

Ta’kidlash o‘rinliki, besh yil avval — 2019-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan parlament va mahalliy vakillik organlariga saylovlardan beri mamlakatimiz va xalqimiz hayotida, milliy saylov qonunchiligi va amaliyotida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi.

Ushbu jarayonda 2023-yil 18-dekabr kuni kuchga kirgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun bilan Saylov kodeksiga hamda boshqa yana yettita qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgani parlamentni shakllantirishning yangi zamonaviy tizimini yo‘lga qo‘yishda muhim omil bo‘ldi.

Bunda davlatimiz rahbarining 2023-yil 6-mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

deputatlari bilan uchrashuvda mamlakatimiz hayotida siyosiy partiyalar rolini oshirish uchun aralash saylov tizimiga o‘tishga doir taklifi muhim ahamiyat kasb etdi.

Aralash saylov tizimi o‘zida mohiyatan ikkita — proporsional va majoritar saylov tizimini uyg‘unlashtirgan. Bu tizimda vakillik organidagi mandatlar, ya’ni deputatlik o‘rinlarining bir qismi deputatlikka nomzodlarning partiya yoki ro‘yxatiga muvofiq siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar muvofiq mutanosib ravishda, ikkinchi qismi esa bevosita siyosiy partiya tomonidan bir mandatli saylov okruglaridan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlarga berilgan ovozlar natijasiga ko‘ra taqsimlanadi.

Shunday qilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi deputatlik o‘rining 50 foizi — 75 nafar ilk bor bir mandatli saylov okruglaridan majoritar saylov tizimi bo‘yicha, qolgan 75 nafar esa partiya ro‘yxati bo‘yicha proporsional saylov tizimi orqali saylandi.

Ma’lumki, ilgari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining saylovi faqat majoritar saylov tizimi asosida o‘tkazilgan. 150 nafar deputatning barchasi bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha, bevosita deputatlikka nomzodlarga berilgan ovozlar natijasiga ko‘ra saylangan.

Siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarni ko‘rsatishda ayollar uchun kamida 40 foizlik kvota belgilangan yangi O‘zbekistonda inson qadriini yanada yuksaltirish borasida ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning amaldagi yana bir ifodasidir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarining 38 foizini yoki 57 nafarini xotin-qizlar tashkil etdi va bu O‘zbekiston tarixida eng yuqori ko‘rsatkich bo‘ldi.

Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar saylovi natijalarini belgilash tartibi takomillashtirilishi bir mandatli saylov okruglarida boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovoz olgan deputatlikka nomzod saylangan deb hisoblanishi joriy etildi. Boshqacha aytganda, bu galgi saylovda ilgari bo‘lgani kabi mutlaq ko‘pchilik emas, balki nisbiy ko‘pchilik ovozi bilan deputatlar saylanishi ta‘minlandi.

O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi fuqarolari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovda ilk bor proporsional tizim bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etdi. Bu chet davlatlarda bo‘lib turgan fuqarolarimizning siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarish hamda ularning bergan ovozini o‘zlariga aloqasi bo‘lmagan boshqa saylov okruglari hisobiga o‘tkazish amaliyotiga barham berdi.

Saylov kodeksida mahalliy kengashlarga saylov o‘tkazish uchun saylov okruglari tegishli deputatlik o‘rinlariga yuz foiz nomzodlar ko‘rsatildi. Bunda “E-saylov” interaktiv portalining ishga tushirilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tizim orqali siyosiy partiyalar nomzodlarning qonunchilik talablariga mosligi holati bo‘yicha saylov komissiyalari bilan tekzor ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Yangi axborot tizimida fuqarolar uchun ham saylovga oid axborotlarni olishda ko‘p-lab qulayliklar yaratildi. Xususan, mazkur tizim saylovchilar va saylov uchastkalariga

— tuman va shahar saylov komissiyasi — okrug saylov komissiyasi — uchastka saylov komissiyasidan iborat saylov komissiyalarining vertikal tizimi joriy etilgani saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni sifat jihatdan yaxshilashga xizmat qildi.

Okrug saylov komissiyasining saylov uchastkalari va uchastka komissiyalarini tuzish, tegishli hududda deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillarini ro‘yxatga olish vakolatlari hududiy saylov komissiyalari tomonidan amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Fuqarolarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar saylovlari jarayoniga qiziqishining sezilarli darajada oshgani barcha bosqichlari ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik asosida o‘tkazilgan saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishning natijalarida yaqqol ko‘rindi: saylovda jami 15 million 27 ming 529 nafar saylovchi ovoz berdi. Bu saylovchilar umumiy sonining 74,72 foizi demakdir.

Qaror va ijro

Milliy saylov tizimiga raqamli texnologiyalarning faol va keng joriy etilayotgani saylov va referendumlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish jarayonlarida ochiqlik va oshkoralikni ta‘minlashda yangidan yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Mazkur tizimga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-oktabrdagi “Saylov jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan asos solinganini alohida ta’kidlash joiz.

Yildan yilga takomillashib borayotgan ushbu tizim saylov jarayoniga “Bir saylovchi — bir ovoz” tamoyilini joriy etishdagi qulayligi, aniqligi, qamrovining kengligi va zamonaviyligi bilan nafaqat saylovchilar, balki saylov tashkilotchilari va saylovni kuzatuvchilarning ham keng e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

2024-yil 27-oktabr kuni milliy parlamentimiz va mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylovlarda “E-saylov” axborot tizimining ishga tushirilishi bunday e’tiroflarning amaldagi yana bir tasdig‘i bo‘ldi. Ushbu zamonaviy tizim yordamida saylov jarayonining ko‘plab tartib-taomillari raqamlashtirilib, byurokratik to‘siqlar keskin kamaytirildi va shaffofligi oshirildi. Tizim boshqa elektron platformalar bilan integratsiya qilingani saylov jarayonlarining avtomatlashtirilishi va saylovlarga oid ma’lumotlarni real vaqt rejimida olish, almashish imkonini berdi.

Mamlakatimiz tarixida birinchi marta beshta siyosiy partiya tomonidan barcha darajadagi deputatlik o‘rinlariga yuz foiz nomzodlar ko‘rsatildi. Bunda “E-saylov” interaktiv portalining ishga tushirilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tizim orqali siyosiy partiyalar nomzodlarning qonunchilik talablariga mosligi holati bo‘yicha saylov komissiyalari bilan tekzor ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

oid statistik ma’lumotlarni olish, barcha turdagi saylovlar bo‘yicha deputatlikka nomzodlar haqida axborotga ega bo‘lish, interaktiv xaritalarda deputatlikka nomzodlar va ularning tarjimai hol bilan tanishish imkonini berdi.

Toshkent shahridagi o‘nta saylov uchastkasida saylov kuni elektron ovoz berishni tashkil etish va o‘tkazishning tajriba-sinov tariqasida joriy etilishi ham muhim yangiliklardan. Elektron ovoz berish tartibi sinab ko‘rilgan saylov uchastkalarida saylovchilar ovoz berishning an’anaviy yoki elektron shaklini mustaqil tanlash huquqidan foydalandi.

Boy tajriba

Istiqlol yillarida O‘zbekiston milliy saylov tizimida erishilgan eng muhim muvaffaqiyatlardan yana biri saylov tashkilotchilarini tizimli va bosqichma-bosqich o‘qitish borasida to‘plangan boy tajribaning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi bilan bog‘liq.

O‘qitishning yuqoridan quyiga qarab kengayib, takomillashib boradigan ko‘p bosqichli bu usuli o‘zining yuksak samaralarini bermoqdaki, sababi mashg‘ulotlarni mamlakatimizning saylov qonunchiligi bo‘yicha tanqli olimlari, ekspert va amaliyotchilari, jumladan, Markaziy saylov komissiyasining yetakchi mutaxassislari olib boradi.

O‘quv mashg‘ulotlari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan malaka oshirish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish, o‘quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish, trenerlar jamoasini shakllantirish, “Saylov” mobil ilovasi va onlayn ta’lim platformasi kabi raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, shuningdek, o‘quv jarayonini monitoring qilishga doir masalalarni qamrab olgan. Jumladan, saylovdan saylovgacha ko‘ilgan davrda aniqlangan muammo va kamchiliklar tahliili asosida turli sohalaridagi mutaxassis va ekspertlar jalb etilgan holda tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlari bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Saylov komissiyalari tizimini takomillashtirish va komissiya a’zolari sonining maqbullashtirilishi natijasida saylov tashkilotchilarini tizimiy siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamkorlikning amaliy natijalari, Markaziy saylov komissiyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan, saylovoldi tashviqotini o‘tkazishga oid odob-axloq qoidalarining imzolanishi xorijda ham katta qiziqish uyg‘otdi.

Imkoniyati cheklangan fuqarolarning ovoz berish jarayonidagi faolligini oshirish uchun barcha zarur choralar ko‘rilishi ham mustaqillik davrida qat’iy yo‘lga qo‘yilgan muhim yangiliklardan.

Ibratli amaliyot

Istiqlol yillarida O‘zbekistonda saylovlarni ochiq va oshkora kuzatish, jumladan, xalqaro kuzatuvchilar faoliyatini ta‘minlash uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Dunyoning ayrim rivojlangan mamlakatlarida ham bunday keng imkoniyat — ko‘p bosqichli nazorat va kuzatuv tizimi hamda amaliyotiga guvoh bo‘lavermaysiz.

O‘zbekiston Respublikasi parlament saylovda 851 nafar xorijiy (xalqaro) kuzatuvchi akkreditatsiyadan o‘tkazildi. Qiyos uchun aytish mumkinki, 2019-yilda o‘tgan saylovlarda 825 nafar xalqaro kuzatuvchi akkreditatsiya qilingan.

Yangi O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etib, xalqaro saylov standartlarini amalga oshirish jarayonida konstruktiv hamkorlikni ta‘minlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Ular orasida BMT, YXHTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (YXHT DIHB), YXHT parlament assambleyasi, Yevropa parlamenti, MDH, MDH parlament assambleyasi (MDH PA), Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bor.

Bularning barchasi yangi O‘zbekistonda uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlarda istiqbolning buyuk qudrati namoyon bo‘layotganining yana bir yorqin tasdig‘idir.

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI IQTISODIY VOQEELIGI: INSON UCHUN BARPO ETILGAN TIZIM



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi o‘n yillikda dunyo tarixida shiddat bilan yuz berayotgan voqealar insoniyat oldiga ulkan sinovlarni qo‘ydi. Geosiyosiy mojarolar avj olishi, davlatlar o‘rtasidagi ishonch so‘nishi, iqtisodiy noaniqliklar, xalqaro huquq normalarining qo‘pol tarzda buzilishi XXI asrdagi barqarorlik va tinchlik haqidagi tasavvurlarni jiddiy savol ostiga qo‘ydi.

Bu voqealar fonida insoniyat tabiatning ochiqcha ogohlantiruvlariga ham guvoh bo‘lmoqda: iqlim o‘zgarishlari, suv tanqisligi, kasalliklarning chegara bilmas pandemik tarqalishi, o‘rmonlarning qisqarishi. Shunday sharoitda tabiiy resurslar uchun raqobat tobora kuchaymoqda. Energetika inqirozi, oziq-ovqat ta‘minotidagi uzilishlar, global inflyatsiya va iqtisodiy retsessiya tahdidi butun dunyo iqtisodiyotini beqaror holatga keltirmoqda.

2020-yilda esa tarixda yangi sahifa ochildi. Koronavirus pandemiyasi nafaqat salomatlik, balki iqtisodiyot, ta‘lim, diplomatiya va boshqaruv tizimlarini sinovdan o‘tkazdi. Inson kapitaliga e‘tibor, hukumatlarning fuqarolarni oldidagi mas‘uliyati va davlatlarning barqarorlik darajasi aynan pandemiya davrida sinovdan o‘tdi.

Bunday noaniq, davro o‘zgarishga putur yetgan va beqaror o‘zgarish ko‘plab davlatlar iqtisodiy tanazzulga, siyosiy inqirozga duch keldi. Ayrim mamlakatlarda noroziliklar kuchaydi, davlat tuzilmalarida zaiflik namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, xalqaro munosabatlarda kuch qo‘llash, tahdid va bosim o‘tkazish siyosati ustuvor bo‘lib borishi dunyoda “kuchli — haq” tamoyilini ilgari surmoqda.

Mana shunday bo‘ronli global sharoitda O‘zbekiston tinchlikni saqlagan, ichki barqarorlikni mustahkamlagan va islohotlarni chuqurlashtirgan davlat sifatida ajralib turibdi. Mustaqilligimizning 34 yillik bayrami arafasida bu islohotlar nafaqat o‘tmishga baho, balki kelajakka qat‘iy va ishonchli qadam sifatida namoyon bo‘layotir.

“Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezgu g‘oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda

Istiqlolimizning 34 yillik chorrahasida turgan davlatimiz bugun iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichini tugallab, yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘layotir.

Yangi iqtisodiy strategiyada bozor munosabatlari inson manfaatlari bilan uyg‘unlashtirildi. Ijtimoiy siyosat bilan iqtisodiy o‘zlashish bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida qurildi. Buni davlat budjeti xarajatining 50 foizidan ko‘pi ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgani ham tasdiqlaydi.

Mazkur bosqichdagi islohotlar mahalliy iqtisodiy tizimni global iqtisodiyotga integratsiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu jarayon mamlakatning xalqaro reytinglarda yuqorilashiga olib keldi. Shuningdek, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy muhit shakllandi. Bu esa xorijiy investorlarning ishonchini qozonishga yordam berdi.

Prezidentimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosati tufayli O‘zbekiston Markaziy Osiyoda ishonch, hamkorlik va o‘zaro manfaatlar asosidagi yaqin qo‘shnichilik muhitini yaratishga erishdi. Bunday siyosiy yetuklik nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham yurtimiz obro‘sin mustahkamladi.

Bir vaqtning o‘zida mamlakatimizda bosqichma-bosqich va uzviy siyosiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, milliy valyutamizning erkin konvertatsiyasi ta‘minlandi,

yangi tahrirdagi Soliq kodeksi orqali biznes muhiti yaxshilandi. Xususiy sektor qo‘llab-quvvatlanib, tadbirkorlar soni oshib borayotir. YIM har yili 5-6 foiz barqaror o‘syapti.

Eng asosiysi, inson kapitaliga sarmoya, ya‘ni ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan byudjet xarajatining ko‘p qismi islohotlar markazida turibdi. Kambag‘allikni qisqartirish, yoshlarga kasb o‘rgatish, raqamli iqtisodiyotga o‘tish, “yashil” energetika dasturlari — bularning barchasi **“islohot — islohot uchun emas, avvalo, inson uchun”** degan tamoyilga asoslangan.

So‘nggi sakkiz yilda iqtisodiyotimizdagi islohotlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, nafaqat sohaviy yangilanishlarni, balki butun iqtisodiy modelni qayta ko‘rib chiqishni talab etdi. 2017-yildan boshlangan yangi bosqichdagi taraqqiyot jarayoni inson farovonligini ta‘minlashga qaratilgan, ochiq va inklyuziv iqtisodiyot qurish g‘oyasiga tayangan yangi voqelikni shakllantirdi.

Islohotlar odamlar hayotini yaxshilash, qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratildi va ijobiy samarasi bilan insonlar hayotida aks etayotir. Mamlakatimizdagi barcha o‘zgarish inson qadriini ulug‘lash, aholi hayotini yaxshilash, adolatli jamiyat va xalqparvar davlat qurishga qaratilmoqda.

O‘zbekistonda yangi iqtisodiy strategiya nafaqat bozor munosabatlarni shakllantirish, balki ularni inson manfaatlariga xizmat qiluvchi samarali tizimga aylantirishni maqsad qildi. Bunday yondashuv, avvalo, inson kapitaliga sarmoya kiritish, raqamli inklyuziv rivojlanish, soliq yukini yengillashtirish va tadbirkorlik muhitini erkinlashtirishda namoyon bo‘ldi.

Oxirgi sakkiz yilda davlat budjeti xarajati tarkibida ta‘lim va tibbiyot sohaciga ajratiladigan mablag‘ sezilarli darajada oshdi. 2016-yilda maktabgacha ta‘lim qamrovi 27 foiz bo‘lgan. 2025-yilga kelib, bu raqam 76 foizga yetdi. Buning uchun joriy yilning o‘zida 162 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti qurilib, ko‘plab xususiy va oilaviy bog‘chalar ochildi. Maktabgacha ta‘lim umumiy majburiy ta‘limning bir qismi sifatida qonunchilikka kiritildi.

Oliy ta‘limga qamrov 42 foizga yetib, dunyo universitetlari reytingida OTMLarimiz soni tobora ko‘payib borayotgani islohotlarning samarasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ish bilan ta‘minlash va kasb-hunar o‘rgatish siyosati natijasida yashash joyi va sohalar bo‘yicha aniq maqsadli bandlik dasturlari ishlab chiqildi. Bularning barchasi iqtisodiyotda inson resurslari samaradorligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishning asosiy omillaridan biriga aylandi.

2017-yil sentabrda so‘mning erkin konvertatsiyasi haqidagi qaror e‘lon qilindi. Bu tarixiy qadam tufayli banklar orqali valyuta operatsiyasi faollashdi, xalqaro sarmoyadorlar uchun ishonchli muhit yaratildi.

2019-yilda yangi Soliq kodeksi qabul qililib, qo‘shimcha qiymat solig‘i stavkasi 12 foizga tushirildi. 2025-yil 1-yanvargacha QQS hamda foyda solig‘i stavkasi oshirilmagligi belgilab qo‘yildi. Kichik va o‘rta biznesga qo‘shimcha talab va majburiyat yuklaydigan me‘yoriy hujjatlar qabul qilishga ham uch yillik moratoriy e‘lon qilindi. QQS qaytarish muddatini qisqartirish, yagona soliq stavkasi joriy qilinishi tadbirkorlar uchun muhim qadam bo‘ldi.

2017-yildan keyin tadbirkorlik muhiti keskin o‘zgardi. Kichik va o‘rta tadbirkorlar soni besh yilda 2 karra ko‘paygan, ularda 10,5 million odam daromad topib, ro‘zg‘or tebratmoqda.

2025-yilda ham soliq siyosati sohasida qator islohotlar va imtiyozlar joriy qilinayapti. Ushbu o‘zgarishlar aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan. Jumladan, 2025-2028-yillarda kambag‘al oilalar a‘zolarini ishga olgan korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foiz o‘rniga 1 foiz etib belgilandi. 2024-2027-yillarda kasb o‘rganishga jalb qilingan o‘quvchilar uchun ham ijtimoiy va daromad solig‘i 1 foiz etib belgilandi.

2017-yilda davlat budjeti ilk bor OAVda e‘lon qilindi. Byudjet jarayonida jamoatchilik nazorati uchun “Ochiq budjet” portali ishga tushirildi.



Jahon tan olayotgan yangi iqtisodiy voqelikni xalqaro tashkilotlar e‘tirofida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, Jahon banki O‘zbekistondagi bozorga asoslangan, insonni markaziy o‘ringa qo‘ygan iqtisodiy o‘zgarishlar mintaqaviy namuna bo‘lib xizmat qilayotganini alohida qayd etdi.

Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan iqtisodiy voqelik faqat raqam va siyosiy qarorlardan iborat emas. Bu inson qadriini ulug‘laydigan, shaffof, inklyuziv va barqaror tizimdir. Endi biz uchun asosiy vazifa 2030-yilgacha mo‘ljallangan inson kapitalini rivojlantirish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, innovasion va “yashil iqtisodiyot”ni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash, iqtisodiy o‘zishni ijtimoiy himoya, tenglik va adolat bilan uyg‘unlashtirishdir.

Xususiy sektor — yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining lokomotivi

Bugun dunyoda raqobatchi iqtisodiyot yaratishda davlatlar jadal harakat qilmoqda. Mazkur jarayonda tadbirkorlik salohiyati, xususan, kichik va o‘rta biznes sektori asosiy o‘rinda. O‘zbekistonda ham vaziyat shunday. Keyingi besh yilda kichik va o‘rta biznes mamlakat iqtisodiyoti lokomotiviga aylandi, deya bemalol aytish mumkin.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, so‘nggi 5 yilda yurtimizda kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 barobar ko‘paygan. Bugun 10,5 millionga yaqin kishi aynan shu soha orqali daromad topmoqda. Bu mamlakat bo‘yicha band aholining 74 foizi degani. Iqtisodiyot hajmining yarmidan ko‘pi, sanoat mahsuloti va eksportning uchdan bir qismi kichik va o‘rta biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelyapti. 2025-yil yanvar-iyun oylaridagi dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, aholining umumiy daromadida kichik tadbirkorlik ulushi 57 foizni tashkil etdi.

Bu raqamlarning o‘ziyoq bizga bitta haqiqatni ko‘rsatadi: **O‘zbekistonning iqtisodiy kelajagi — tadbirkorlikda.**

Prezidentimiz tadbirkorlar bilan ochiq muloqatda alohida ta‘kidladi: **“Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash — bizing strategik yo‘limiz”**. Bu so‘zlar ortida ulkan harakat, yo‘naltirilgan siyosat va aniq mexanizmlar bor. Jumladan, 2025-yilda kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga oshirish, 70 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratish, kichik va o‘rta biznes eksportini 12 milliard dollargacha yetkazish, kommunal xizmatlar, logistika va ijtimoiy xizmatlarda kichik va o‘rta biznes ulushini 2-3 barobar ko‘paytirish, 1,5 million doimiy ish o‘rni ochish, 4000 ta tadbirkorlik subyekti tashkil qilish, 100 ta yangi milliy brend yaratish, 200 ta startapni moliyalashtirish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Bu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun 10 milliard dollarlik imtiyozli resurslar safarbar etiladi. Shuning 2,5 trillion so‘mi yoshlar, 2,5 trillion so‘mi ayollar tadbirkorligiga yo‘naltiriladi.

Ko‘p yillardan beri tadbirkorlar oldidagi eng katta to‘siqlardan biri moliyalashtirish edi. Endi bu yo‘nalishda aniq yechimlar joriy qilinmoqda. 2025-yildan boshlab kichik biznesga 300 million so‘mgacha kredit berila boshlandi. Faoliyatini kengaytirgan tadbirkorlarga shu summaning 150 million so‘mi garovsiz ajratiladi. Oilaviy tadbirkorlik uchun ham 50 million so‘mgacha garovsiz kredit taqdim etiladi. E‘tiborli jihati, ayol tadbirkorlar uchun kredit stavkasi boshqalarga nisbatan 2 foiz pasaytiriladi.

Innovatsion iqtisodiyot yuqori qo‘shilgan qiymat manbaidir. Raqamlarga e‘tibor qaratilsa, so‘nggi 5 yilda 145 million dollarlik 53 ta startap loyiha amalga oshirilgan. Yangi 3 ta venchur kompaniya orqali 50 million dollarlik fond shakllantirildi. Bu mablag‘ ko‘proq ilmiy-texnologik yechimlar va raqamli iqtisodiy loyihalarga sarflanishi kutilayapti. Yaratilgan innovatsion mahsulotlar texnik standartlarga kiritilib, davlat buyurtmalarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.



Kichik biznesga faoliyat yuritishi uchun zarur yer va binolar berish masalasida ham muhim o‘zgarishlar kiritilmoqda. Jumladan, davlatga tegishli 150 ta bino auksionga chiqarilib, tadbirkorlarga taklif etiladi. 5000 gektardan ortiq yer yangi ijara tizimi orqali fermerlarga beriladi. 30 ming gektar yer bozor qonuniyatlarini asosida taqsimlanadi.

20 ta tumanda maxsus loyiha ofislari tashkil etiladi. Ular xorijlik muhandis, texnolog va marketologlarni jalb qilib, tadbirkorlar uchun amaliyotga asoslangan maslahat va qo‘llab-quvvatlov xizmatlarini taqdim etadi. Ana shu maqsadga 100 milliard so‘m ajratiladi.

“Yangi tadbirkorlar uchun ‘birinchi imkoniyat’ degan yangi yondashuv joriy etiladi. Endi birinchi marta ma‘muriy xato qilgan tadbirkor uni, tuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Faoliyatini ixtiyoriy to‘xtatmoqchi bo‘lgan kichik biznes subyektlari uchun ham yengilliklar joriy qilinmoqda. Xususan, aylanmasi 10 milliard so‘mdan kam va qarzi yo‘q korxonalar tekshiruvsiz tugatiladi.

Qisqasi, yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti ana shunday yangi yo‘nalish, yangi tartib, yangi dunyoqarash bilan taraqqiyot sari qat‘iy odimlammoqda. Bu yo‘lda xususiy sektorga strategik ahamiyat berildi. Avvalgi markazlashgan iqtisodiy modelda chetda qolgan xususiy tashabbuslar endi rivojlanishning asosiy lokomotiviga aylandi.

Agar bu yo‘nalishdagi islohotlarga e‘tibor qaratsak, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, huquqiy va moliyaviy asoslarini mustahkamlash, tadbirkorlik muhitini erkinlashtirishga qaratilgan qator ishlar qilimganiga guvoh bo‘lamiz.

Xususan, litsenziya va ruxsatnoma turlari qisqartirildi, tadbirkorlar uchun ko‘plab byurokratik to‘siqlar bekor qilindi, soliq va bojxona to‘lovida yengilliklar berildi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Davlat aktivlarini xususiy sektorga o‘tkazish borasida salmoqli qadamlar qo‘yilganini ham aytib o‘tish lozim. Birgina 2019-2023-yillarda 1900 dan ziyod davlat aktivni xususiylashtirildi. Davlat ishtirokidagi korxonalarda transformatsiya jarayoni boshlandi. Iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish orqali raqobat muhitini kamaytirish o‘ziga o‘xshash qadamlar ham amalga oshirildi. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarni shaffoflashtirdi, iqtisodiy intizom mustahkamlandi.

Valyuta kursini erkinlashtirish shaffof iqtisodiyot uchun paydevor yaratdi. 2017-yil 5-sentabrda qaror asosida so‘mning erkin konvertatsiyasiga o‘tish bilan mamlakatimiz valyuta siyosatidagi ko‘p yillik muammoli vaziyat tugatildi. Bu irodali va tarixiy qaror iqtisodiyotning ko‘plab sohalarda o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Jumladan, valyuta ayirboshlash operatsiyalari shaffoflashdi va xalqaro sarmoyadorlar uchun ishonch muhiti yaratildi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi bu qadammni Markaziy Osiyodagi eng ilg‘or valyutaviy islohotlardan biri deb baholadi. Eng muhimi, eksport qiluvchi va import bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar uchun barqaror va aniq bozor sharoiti yaratildi.

Iqtisodiy islohotlar markaziga soliq tizimini tubdan yangilash masalasi qo‘yildi. Bu bejiz emas. Chunki rivojlangan har qanday mamlakatda ishlabarmonlik muhiti, investitsiya jozibadorligi va makroiqtisodiy barqarorlik samarali soliq tizimiga bog‘liq.

2016-yilgacha yurtimizdagi soliq siyosati tadbirkorlar uchun og‘ir yuk, aholi uchun esa ko‘pincha tushunsiz hisob-kitoblar bilan

emas, balki jamiyatning yangicha fikrlashi, fuqarolarning o‘z hayoti va mamlakat taqdiri uchun mas‘uliyatni his etishidir. Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, xususiy mulk egasi o‘z resurslaridan samarali foydalanish, bozor talablariga mos mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishga intiladi. Bu esa raqobat muhitini kuchaytiradi. Shu tariqa mahsulot sifati oshadi, ish o‘rinlari ochildi va yangi texnologiyalar joriy etiladi.

Islohotlar xususiy tadbirkorlikka kirishish uchun to‘siqlarni kamaytiradi. Ya‘ni ro‘yxatdan o‘tish jarayoni soddalashtirildi, soliq yuki yengillashtirildi, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati kengaydi. Bu orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotining katta qismi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri kela boshladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, xususiy sektor ulushi qancha katta bo‘lsa, iqtisodiyot shuncha barqaror va jamiyat faol bo‘ladi. Masalan, Janubiy Koreya yoki Singapurda xususiy sektor davlat islohotlarining yetakchi quvvati sifatida xizmat qilgan.

Davlat bilan biznes o‘rtasidagi sheriklikni institutsionalashtirish yo‘lida yangi mexanizmlar yaratildi. Tadbirkorlar bilan muntazam uchrashuvlar, biznes assotsiatsiyalarning davlat organlari bilan uzviy aloqasi, xususiy sektor vakillarining qonun loyihalarini muhokama qilishda ishtiroki kabi chora-tadbirlar biznes muhitini yaxshilashga xizmat qildi. Bundan tashqari, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus fond va dasturlar ishga tushirildi. Yangi korxonalar paydo bo‘lishi jahon standartlariga mos mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish imkonini yaratib, eksport salohiyatini oshirishga hissa qo‘shdi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida xususiy biznesga faqat pul topish vositasi emas, balki unga ijtimoiy sherik, ijtimoiy mas‘uliyatli subyekti sifatida qaralmoqda. Mazkur tendensiya “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham o‘z aksini topgan, ya‘ni xususiy sektorning ulushini yanada oshirish, innovatsion biznesni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Valyuta, soliq va moliya: eng og‘ir, lekin zarur qadamlar

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich, strategik rejalashtirilgan tarzda amalga oshirilmoqda. Ularning ichida eng og‘ir, lekin iqtisodiy taraqqiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega yo‘nalishlar barqaror siyosat, soliq tizimi va moliyaviy barqarorlik masalalari bo‘ladi.

Bu sohalaridagi islohotlar orqali iqtisodiyotning asosiy tuzilmalari qayta ko‘rib chiqildi. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarni shaffoflashtirdi, iqtisodiy intizom mustahkamlandi.

Valyuta kursini erkinlashtirish shaffof iqtisodiyot uchun paydevor yaratdi. 2017-yil 5-sentabrda qaror asosida so‘mning erkin konvertatsiyasiga o‘tish bilan mamlakatimiz valyuta siyosatidagi ko‘p yillik muammoli vaziyat tugatildi. Bu irodali va tarixiy qaror iqtisodiyotning ko‘plab sohalarda o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Jumladan, valyuta ayirboshlash operatsiyalari shaffoflashdi va xalqaro sarmoyadorlar uchun ishonch muhiti yaratildi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi bu qadammni Markaziy Osiyodagi eng ilg‘or valyutaviy islohotlardan biri deb baholadi. Eng muhimi, eksport qiluvchi va import bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar uchun barqaror va aniq bozor sharoiti yaratildi.

Iqtisodiy islohotlar markaziga soliq tizimini tubdan yangilash masalasi qo‘yildi. Bu bejiz emas. Chunki rivojlangan har qanday mamlakatda ishlabarmonlik muhiti, investitsiya jozibadorligi va makroiqtisodiy barqarorlik samarali soliq tizimiga bog‘liq.

2016-yilgacha yurtimizdagi soliq siyosati tadbirkorlar uchun og‘ir yuk, aholi uchun esa ko‘pincha tushunsiz hisob-kitoblar bilan

bog‘liq bo‘lib kelgan. Ko‘plab soliq turlari, turli stavkalar, qog‘ozbozlik va inson omiliga bog‘liq nazorat jarayonlari ishonchsizlik muhitini vujudga keltirardi.

Bu jarayonda 2017-yildan boshlab tub burilish yasaldi. 2020-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirgan yangi Soliq kodeksi so‘nggi yillardagi eng muhim huquqiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Yangi kodeksda nafaqat soliq turlari qayta ko‘rib chiqildi, balki “davlat — tadbirkor — fuqaro” o‘rtasidagi munosabatlarga doir xolisana asos yaratildi.

Asosiy o‘zgarishlar QQS stavkasi tushirilib, yagona ijtimoiy to‘lovlar kamaytirilishi, soliq turlari qisqartirilishi, soddahisob-kitob mexanizmi joriy qilinishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Elektron hisobot va onlayn soliq tizimlarining qog‘ozsiz hujjat aylanmasiga o‘tili. Bu tadbirkor uchun yengillik barobarida shaffoflik va teng raqobat muhiti uchun ham muhim qadam bo‘ldi.

Soliq tizimining raqamlashtirilishi so‘nggi yillardagi eng katta yutuqlardan biridir. “My.soliq.uz”, QR-kodli kassalar, onlayn-fiskal apparatlar va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari tadbirkorni soliq idoralarga bog‘liqlikdan qutqardi.

Hozir tadbirkor soliq to‘lash uchun navbat kutmaydi, huquqiy ma‘lumotni qog‘oz qidirib izlamaydi, balki mobil telefon orqali barcha jarayonni boshqaradi. Soliq nazoratida ham inson omili qisqarib, avtomatlashtirilgan tizimlar joriy qilindi.

Soliq islohotlari natijasida soliq tushumi oshdi va davlat byudjeti barqarorlashdi, YIMda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 2020-yilda 45 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilning yanvar-mart oylarida bu ko‘rsatkich 32 foizni tashkil qilgan.

Ilgari tadbirkorlik faoliyatiga ortiqcha ma‘muriy bosim va davlat aralashuvi kuchli bo‘lgani uchun ko‘plab biznes egalari ochiq ish yuritishdan cho‘chirdi. So‘nggi yillarda esa soliq yukini pasaytirish va ortiqcha byurokratik to‘siqlarni yo‘qotish borasida davlat islohotlar amalga oshirildi. Xususan, soliq turlari 13 tadan 9 tagacha qisqartirildi, 100 dan ziyod litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Natijada yashirin iqtisodiyotning yalpi iqtisodiyotdagi ulushi 2019-yildagi 45-50 foizdan 35 foizgacha kamaydi. Biroq bu ko‘rsatkichni yanada pasaytirish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda.

Elektron to‘lovlar tizimi rivojlanishi aholi uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda ham samarali vositaga aylandi. Davlatimiz rahbari bu masalaga e‘tibor qaratar ekan, faqat nazoratni kuchaytirish bilan barqaror natijaga erishib bo‘lmagligini, asosiy e‘tibor aholi va tadbirkorlarning soliq madaniyatini oshirish, halol ish yurituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi kerakligini ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, soliq madaniyati butun jamiyat uchun umumiy qadriyatga aylanishi zarur.

Tadbirkorlik muhiti yaxshilandi. Ko‘plab firmalar legal ishlashga o‘tdi. Tekshiruvlar soni kamaydi, soliq inspektorlari bilan o‘zaro munosabat maslahatlashuvga asoslandi. Natijada xalq orasida soliq to‘lashga munosabat ham o‘zgardi. Avval soliq “majburiyat”, “jazo”, “tekshiruv” timsoli bo‘lgan bo‘lsa, bugun “infratuzilma”, “hudud rivoji”, “davlat xizmati” manbai sifatida ko‘rilmoqda.

Masalan, Ochiq budjet platformasi orqali har bir fuqaro o‘ziga oid hududga davlat qancha mablag‘ ajratilganini bilishi mumkin. Bu esa soliq to‘lovchining mas‘uliyatini ham, ishonchini ham oshirmoqda.

2025-yildan boshlab soliq ma‘murchiligini raqamlashtirish jarayonini takomillashtirish, o‘rta muddatli soliq siyosati konsepsiyasini joriy etish va samaradorlikka asoslangan soliq monitoringi tizimini to‘liq ishga tushirish rejalashtirilgan.

So'nggi sakkiz yilda O'zbekiston iqtisodiyoti
tadama amalga oshirilgan islohotlar, o'z mohiya-
tiga ko'ra, nafaqat sohaviy yangilanishlar
balki butun iqtisodiy modelni qayta ko'rib
chiqishni talab etdi. 2017-yildan boshlangan
yangi bosqichdagi taraqqiyot jarayoni inson
farovonligini ta'minlashga qaratilgan, ochiq
va inkluziv iqtisodiyot qurish g'oyasiga
tayanadigan yangi voqelikni shakllantirdi.

